

**2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini
“Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da
amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi to‘g‘risida
TAHLILY MA‘LUMOT**

01.05.2022y.

**III. MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH VA YUQORI O‘SISH
SUR‘ATLARINI TA‘MINLASH**

Dasturning 22-maqсадda Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobar oshirish belgilangan.

76 band: Mis sanoati klasterini tashkil etish orqali mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 barobar ko‘paytirish hamda 8 mlrd. AQSH dollarlik mahsulot ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan.

1. **“Xomashyodan tayyor mahsulotgacha”** bo‘lgan ko‘p pog‘onali qo‘shilgan qiymat zanjirlarini yaratishga qaratilgan **Mis sanoati klasterini rivojlantirish konsepsiyasini** xorijiy konsultantlar bilan birgalikda ishlab chiqiladi.

Bunda:

- **2022-2026 yillarda** mis xom ashyosidan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning to‘liq sikli va texnologik zanjirini yaratish bo‘yicha **“Yo‘l xaritasi”**ni ishlab chiqishni;
- mis va nodir metallar asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish zanjirini yaratish bo‘yicha **2022-2026 yillarga** mo‘ljallangan istiqbolli loyihalar **manzilli dasturini** qabul qilishni;
- mis sanoati klasteri ishtirokchilari uchun **muhandislik-kommunikatsiya** va **yo‘l-transport infratuzilmasini** yaratishni nazarda tutilgan.

Hozirda “HATCH” kompaniyasi tomonidan bajariladigan ish hajmi (jumladan, kon-metallurgiya mashinalari, texnikalari va uskunalarning yangi turlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturi) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilgan. Shartnoma loyihasi tayyorlanib, “Olmaliq KMK” AJ tomonidan imzolandi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligiga imzolash uchun kiritildi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan “HATCH” (Kanada) kompaniyasi dasturini ishlab chiqish bo‘yicha shartnoma imzolashga rozilik olindi va Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tomonidan “HATCH” (Kanada) kompaniyasiga imzolash uchun yuborildi.

Hozirgi kunda shartnomada keltirilgan ish hajmini bajarish bo‘yicha amaliy ishlar boshlab yuborildi.

2. **2022-2026 yillarda kon-metallurgiya mashinalari, texnikalari va uskunalarning** yangi turlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

Bunda, “Navoiy KMK” AJ va “Olmaliq KMK” AJ **mashinasozlik zavodlari** negizida kon-metallurgiya mashinalari, texnikalari va uskunalari ishlab chiqarishni joriy etish va mahsulot turlarini kengaytirish, mahalliyashtirish **darajasini oshirish** hamda ular uchun **zarur jihozlar va butlovchi qismlarni** ishlab chiqarishni tashkil etish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutilmoqda.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan “HATCH” (Kanada) kompaniyasi dasturni ishlab chiqish bo‘yicha shartnoma imzolashga rozilik olindi va Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tomonidan “HATCH” (Kanada) kompaniyasiga imzolani uchun yuborildi.

“HATCH” (Kanada) kompanisi tomonidan kuni 3 (uch) tomonlama shartnoma imzolandi.

Hozirgi kunda shartnomada keltirilgan ish hajmini bajarish bo‘yicha amaliy ishlar boshlab yuborildi.

3. Kon-metallurgiya sanoati sohasida **ekologik talablar** va atrof-muhit **muhofazasi me‘yorlarini** xalqaro standartlar asosida belgilash dasturini ishlab chiqish. Bunda:

- atrof-muhitga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarni ekologik talablar doirasidan oshmasligini ta‘minlash dasturini ishlab chiqishni;
- kon-metallurgiya sanoati korxonalarida ilg‘or xorij tajribadan kelib chiqib, **ekologik menejment tizimini** joriy etishni nazarda tutilgan.

Ishchi guruh tomonidan “Kon-metallurgiya sanoati sohasida ekologik talablar va atrof-muhit muhofazasi me‘yorlarini xalqaro standartlar asosida belgilash” dasturi loyihasi ishlab chiqildi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tomonidan Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi (ID-57817 (V-1) ishlab chiqildi va “Olmaliq KMK” AJ tomonidan loyiha o‘rganib chiqilib o‘zgartirish kiritish bo‘yicha takliflar kiritildi.

Kon-metallurgiya sanoati sohasida ekologik talablar va atrof-muhit muhofazasi me‘yorlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida 22 ta xorijiy ekologik standartlar (*qo‘llanmalar*) davlat tiliga o‘girildi va standartlar agentligi tomonidan o‘rnatilgan tartibda ro‘yxatdan o‘tgazilib amaliy tadbir qilinmoqda.

“Olmaliq KMK” AJda ekologik menejment ISO 14001 tizimini joriy etish maqsadida konsultant xizmatlarini joriy etish yuzasidan tanlov e‘lon qilingan (*exarid.uzex.uz. 22121012006284-son lot*).

4. Mis sanoati klasteri uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish hamda sohada **tajriba-konstruktorlik** va **ilmiy izlanishlar** ko‘lamini kengaytirish dasturini ishlab chiqish.

Bunda:

- mis klasterining kadrlarga bo‘lgan ehtiyojidan va zamonaviy kasb yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda **elektrotexnika, elektronika, dastgohsozlik, mashinasozlik, metallurgiya, materialshunoslik, “yashil texnologiyalar”, robototexnika**, yarim o‘tkazgichlar fizikasi bo‘yicha yangi ta‘lim yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlashni kengaytirishni;
- **muhandis, texnik** va boshqa o‘rta bo‘g‘in ishchi-xodimlarni tayyorlash bo‘yicha **professional ta‘lim** o‘quv dasturlarini amaliyot bilan uzviy bog‘liqlikda joriy etishni;
- mis klasteri faoliyatiga bog‘liq ilmiy-tadqiqot ishlari yo‘nalishlari asosida **maqsadli davlat buyurtmasi portfelini** shakllantirishni nazarda tutilgan.

Dastur loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha shakllantirilayotgan ishchi guruhga “Olmaliq KMK” AJ tomonidan mas‘ul xodimlar nomzodi Davlat geologiya qo‘mitasiga yuborildi.

Geologiya qo‘mitasi tomonidan “Mis sanoati klasteri uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish hamda sohada tajriba-konstruktorlik va ilmiy izlanishlar ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar” Dasturi loyihasi ishlab chiqildi, “Olmaliq KMK” AJ tomonidan taklif va e‘tirozlar yo‘qligi ma‘lum qilindi.

“Mis sanoati klasteri uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish hamda sohada tajriba-konstruktorlik va ilmiy izlanishlar ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar” Dasturi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi. Dastur doirasida ilmiy

izlanishlarni ko‘lamini kengaytirish maqsadida “Mis sanoati klasteri uchun kadrlar tayyorlash to‘g‘risida” ichki buyruq qabul qilindi.

77-band: Metallurgiya sohasida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish.

“**Olmalik KMK**” AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirishning **I-bosqichi**” (“Yoshlik **I** konini o‘zlashtirish”) investitsiya loyihasi amalga oshirish orqali:

- quvvati **60 mln tonnaga** teng **3-son mis boyitish fabrikasini** qurish va **2024 yilda** ishga tushiriladi;
- **2025 yilda** yangi metallurgiya ob‘ektlarini foydalanishga topshirish evaziga “Olmalik KMK” AJ ishlab chiqarish hajmini **mis katodi bo‘yicha 300 ming tonnaga** va **oltin bo‘yicha 30,1 tonnaga** yetkaziladi.

“Olmalik KMK” AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirishning yangi konsepsiyasi va investitsiya loyihalarini amalga oshirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi ishlab chiqildi hamda 2022 yil 18 mart kuni Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimiga “project.gov.uz”ga joylashtirildi (*ID-58756*) vazirlik va idoralar e‘tirozlari bilan kelishildi. Huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun Adliya vazirligiga kiritildi.

2025 yilda yangi metallurgiya ob‘ektlarini foydalanishga topshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilmoqda.

Mis va ruxni chuqur qayta ishlash evaziga yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot turlarini ko‘paytiriladi:

- mis va rux asosida qotishmalardan tasma, folga, sim va h.k. - **10 ming tonna**;
- mis kukuni - **2 ming tonna**.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambagallikni qisqartirish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi va Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki bilan kelishilgan “Olmalik KMK” AJ 2022-2025 yillarda Angren quvur zavodining rivojlanish dasturi” Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

“Olmalik KMK” AJ tomonidan bajarilgan amaliy ishlar yuzasidan ma‘lumot asosiy ijrochi - Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligiga kiritildi. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tomonidan Vazirlar Mahkamasiga ma‘lumotlar taqdim qilindi.

Noyob metallarni chuqur qayta ishlash orqali qo‘shilgan qiymatli mahsulot turlarini ko‘paytiriladi:

- molibden o‘ta toza tuzlaridan **150 tonna** metall;
- maxsus qattiq qotishmalar - **18,5 tonna**.

Nodir metallar va qotishmalar ishlab chiqarish bo‘yicha ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasini 2022-2024 yillarda yillarda rivojlantirish va yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish” dasturi bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan ma‘qullandi.

2022 yil 22 fevral Dastur doirasida loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha batafsil **tarmoq jadvali** ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Dasturda ko‘rsatilgan loyihalarni tarmoq jadvalarida ko‘rsatilgan muddatlarda bajarilishi ta‘minlanmoqda. Prezidenti Administratsiyasi topshirig‘iga asosan Germaniyaning “Falk Porsche Technik GmbH” kompaniyasi bilan hamkorlikda umumiy qiymati 19,0 mln. dollarlik 4 ta loyihani to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda amalga oshirish uchun muzokaralar olib borilmoqda.

“Olmalik KMK” AJ tomonidan bajarilgan amaliy ishlar yuzasidan ma‘lumot asosiy ijrosi - Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligiga kiritildi. Iqtisodiy taraqqiyot va

kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan 2022 yil 11 apreldagi 04/16-02-4/30-son xati bilan Vazirlar Mahkamasiga ma'lumotlar taqdim qilindi.

24-maqсадda Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish rejalashtirilgan.

99-band: Iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini bir birlik yalpi ichki mahsulot hisobida 20 foizga qisqartiriladi.

1. Yangi ishga tushirilayotgan **ishlab chiqarish korxonalar va tashkilotlarda** ifloslantiruvchi manbalarida samaradorligi **99,5 foizdan** kam bo'lmagan **chang va gaz tozalash o'rnatishni tashkil qilinadi.**

"Olmaliq KMK" AJ yangi mis boyitish fabrikasi (3-MBF) mis eritish tizimini kengaytirish loyihalarida ishlash samaradorligi 99,5 foizdan kam bo'lmagan chang-gaz tozalash uskunalari tanlash va o'rnatish texnik topshiriqlarda nazarda tutilgan.

2. Xavflilik darajasi yuqori va o'rta bo'lgan metallurgiya, yog'-moy, energetika va qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi **24 ta** yirik korxonalarda samaradorligi **95 foizdan** kam bo'lmagan **144 ta** chang-gaz tozalash uskunalari o'rnatiladi.

Mis boyitish fabrikasidagi aspiratsiya tizimini to'liq rekonstruksiya qilish loyihasi "TPNSU" loyihachi tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan (DS-1) 1-maydalash tsexining 48 ta aspiratsiya quvurlarini tayyorlab quyilgan texnik uskuna xaridlari amalga oshirilmoqda.

3. Atmosfera havosiga ta'sir xavfi integratsiya qilish yuqori bo'lgan **44 ta** sanoat korxonalarining atmosferani ifloslantiruvchi **50 ta** ustuvor manbalarida avtomatik stantsiyalar, ularga tutash hududlarda **12 ta** stasionar kuzatuv punktlarini o'rnatish va **Yagona geoaxborot ma'lumotlar bazasiga** integratsiya qilinadi.

Atmosferaga salbiy ta'sir etuvchi asosiy manbalar belgilab olingan.

Aspiratsiya tizimlarida avtomatlashtirilgan uskunalar o'rnatish dasturi ishlab chiqilgan va Ekologiya qo'mitasiga bilan kelishilgan.

Shu bilan bir qatorda tutash hududlarda stasionar kuzatish punktlari bilan jixozlash borasida besh dona stasionar kuzatish qurilmasini xaridi uchun texnik topshiriq ishlab chiqilgan va xarid yuzasidan kelishuvlar olib borilmoqda.

4. Tabiiy suv havzalariga yoki joy reliefiga oqovalar tashlovchi yirik sanoat korxonalarida **76 ta lokal oqova tozalash inshootlarini** qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilinadi.

Angren kon boshqarmasi "Ko'ch-buloq" konining kimyoviy suv tozalash inshooti loyihasi ishlab chiqilmoqda va pudrachi tashkilotlarga qo'yilgan shart va talablar ko'rib chiqilmoqda.

VI. MILLIY MANFAATLARDAN KELIB CHIQQAN HOLDA MUMBASHARIY MUAMMOLARGA YONDASHISH

79-maqсадda aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish belgilangan.

286 band: Atrof muhitga ta'siri xavfi yuqori daraja (I toifa)dagi ob'ektlarning ifloslantiruvchi manbalaridan avtomatik ravishda namunalar olish tizimini tatbiq etish.

“Yangi Angren IES” AJ va “Olmaliq tog‘- metallurgiya kombinati” AJ Mis eritish zavodining ifloslantiruvchi manbalariga namuna olish va tahlil qilish bo'yicha avtomatik stantsiyalarini tajriba tariqasida o'rnatiladi.

Natijada ifloslantiruvchi manbalar tashlamalari ustidan avtomat nazorat tizimi yaratiladi, inson omilisiz monitoring amalga oshiriladi, qayd etilgan ifloslanish holatlarini o'z vaqtida bartaraf etish choralari ko'riladi.

Davlat ekologiya qo'mitasi mutaxassislari “Olmaliq KMK” AJ Mis eritish zavodiga ustuvor ifloslantiruvchi manbalarida avtomat o'lchov uskunalari o'rnatish ishlarini bajarish maqsadida ob'ektlarni o'rganish uchun tashrifi amalga oshirildi.

Mis eritish zavodiga ustuvor ifloslantiruvchi manbalarida avtomat o'lchov uskunalari o'rnatish maqsadida xorijiy kompaniyalarning avtomatik nazoratni amalga oshiruvchi o'lchov uskunalari xaridi yuzasidan texnik shartlari ko'rib chiqilmoqda.

Shu bilan bir qatorda Mis eritish zavodiga ustuvor ifloslantiruvchi manbalarida avtomat o'lchov uskunalari o'rnatish maqsadida “ER-Telekom Xolding” AJ tijoriy takliflari kutilmoqda.